

## ISMOILIYLIK YO'NALISHING PAYDO BO'LISHI VA TA'LIMOTINING SHAKLLANISHI

**Xojimuratova Dilshoda Sunnatullayevna**

*Tarixi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

e-mail: [dilshoda\\_xodjimuratova@tsuos.uz](mailto:dilshoda_xodjimuratova@tsuos.uz)

**Abdualimova Durdona Shavkat qizi**

1-kurs magistrant, e-mail: [durdonashavkatovna@gmail.com](mailto:durdonashavkatovna@gmail.com)

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

**Annotatsiya:** *Ismoiliylik IX asrda shia islomining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning asosiy g'oyalari Imom Ismoil ibn Ja'far nomi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalish boshqa shia oqimlaridan farqli ravishda yashirin da'vat (da'wa) tizimi, ta'vil (ramziy tafsir) usuli va imomlik konsepsiyasiga katta e'tibor qaratgan. Ismoiliylik dastlab Abbosiy xalifaligiga muxolifat sifatida shakllandi va IX—X asrlarda ta'limoti chuqurlashib, siyosiy jihatdan kuchaygan. X asrda Fatimiylar xalifaligi barpo etilishi bilan Ismoiliylik rasmiy mafkura darajasiga ko'tarildi va ta'limotining asosiy tamoyillari shakllandi. Bu tamoyillar orasida Imomning ma'naviy va dunyoviy hokimiyati, bilimning ichki mohiyatini anglash (botiniy tafsir) va da'vat tizimining rivojlanishi muhim o'rin tutadi. Ismoiliylarning falsafiy qarashlari neoplatonizm, gnostitsizm va shia ilohiyotidan ta'sirlangan bo'lib, ular olamning yaratilishi, bilimning mohiyati va ruhiy poklanish kabi masalalarni o'ziga xos tarzda talqin qilganlar. Alamut davrida (XI—XIII asr) ismoiliylik ta'limoti yangi bosqichga o'tib, harbiy-siyosiy faoliyat bilan uyg'unlashgan va ta'lim jarayonida ham rivojlangan. Shunday qilib, Ismoiliylik nafaqat diniy oqim, balki o'ziga xos falsafiy va siyosiy ta'limot sifatida shakllanib, o'rta asrlar islom olamida muhim iz qoldirgan.*

**Kalit so'zlar:** *Imom Jafar, Fotimiylar, Nizoriy ismoiliylar, Ali partiyasi, Mahdiy, sof Ismoiliylar, Muborakiyya, Al-Azhar, Mustariy Ismoiliylar, Nizoriy Ismoiliylar.*

**Kirish:** *Ismoiliylik IX asrda shialik ichida imomlik masalasiga oid kelishmovchiliklar natijasida shakllangan mustaqil yo'nalish bo'lib, uning tarafdorlari Ismoil ibn Ja'farning avlodlari haqiqiy imomlar ekanini da'vo qilganlar. Ular ta'vil (ramziy tafsir) va botiniy bilimni asosiy diniy tamoyil deb bilib, yashirin da'vat tizimi orqali o'z ta'limotlarini targ'ib qildilar. IX—X asrlarda ismoiliylik xalifalik siyosatiga muxolif kuch sifatida rivojlandi. Dastlab ular yashirin faoliyat yuritib, musulmon jamiyatining turli qatlamlariga da'vat yo'lladi. X asrga kelib, ismoiliylarning faoliyati kuchayib, ularning siyosiy ta'siri ortdi.*

Nihoyat, 909-yilda Mirsda Fatimiylar davlati barpo etilishi bilan Ismoililik faqat diniy oqim emas, balki siyosiy hokimiyatga ega bo‘lgan harakatga aylandi.

**Asosiy qism:** Islom dinining Shialik va Sunniylikka bo‘linishining kelib chiqishi haqiqatdan ham, Muhammad payg‘ambarning vorisligi inqirozi bilan bog‘lash mumkin. Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) islom dinini yetkazish va talqin qilishdan tashqari, islom jamoatining rahbari sifatida ham harakat qilgan. Demak, islom jamoatining birligini ta‘minlash uchun voris zarur edi<sup>7</sup>. Sunniylarning fikriga ko‘ra, Payg‘ambar o‘z vorisligi haqida na rasmiy ko‘rsatma va na vasiyat qoldirgan. Ko‘p bahs-munozaralar ostida Islomni eng birinchi qabul qilganlardan biri va Payg‘ambarning ishonchli sahobalaridan bo‘lgan Abu Bakr bir guruh nufuzli kishilari tomonidan voris etib saylandi. Abu Bakrning saylanishi Umar ibn Xattobning taklifi bilan amalga oshirildi.

Abu Bakr “Rasulullohning xalifasi” yoki “Rasulullohning vorisi” unvonini oldi, bu unvon tez orada Xalifaga soddalashtirildi. Musulmonlar Payg‘ambarning birinchi o‘rinbosarlarini saylash orqali ham o‘ziga xos islomiy xalifalik institutiga asos solgan edilar. Payg‘ambar vafotlaridan so‘ng Madinada ochiqchasiga paydo bo‘lgan kichik bir guruh Ali roziyallohu anhu Payg‘ambarning o‘rniga boshqa musulmonlardan malakali va munosib deb hisoblaydilar. Dastlab Alining do‘stlari va tarafdorlaridan iborat bo‘lgan bu ozchilik guruh vaqt o‘tishi bilan kengayib Alining qisqa xalifaligida asosan “Shia Ali” yoki “Ali partiyasi” so‘ngra oddiygina “Shia” deb atala boshlandi.

Shia tarafdorlari xalifa Usmon (644-656) davrida keskin harakat qilishni boshlaydilar. Usmon ham odatda Payg‘ambar alayhissalomning qarindoshlaridan hisoblanardi. U Muhammadning xolasi Ummu Hakim bintu Abdulmuttalibning nabiralaridan shuningdek, Rasulullohning kuyovi bo‘lib, ularning ikki qizi Ruqayya va Ummu Kulsumga uylangan edi<sup>8</sup>. Ammo shialar uchun faqatgina Ali Payg‘ambarning eng yaqin qarindoshi deb hisoblashar, shuning uchun qolgan xalifalarning hukmronligi tan olmas edilar. Natijada Shia guruhi tarafdorlari Banu Hoshim qabilasining yordami bilan 656-yili xalifa Usmon Madinada vaqti bir guruh qo‘zg‘olonchilar tomonidan o‘ldiriladi. Buning asosiy sababi qilib xalifa Usmonning Banu Ummaya qabilasini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lgan siyosati asos qilib ko‘rsatildi. Shunday notinch sharoitda xalifalikka Ali keladi. Usmonning o‘ldirilishi Islomdagi birinchi fuqarolar urushi va fitnasiga aylanib ketdi va bu urush Alining qisqa umr ko‘rgan xalifaligi davrida yuz berdi.

Islom jamoasi o‘zlarining birinchi fuqarolik urushidan so‘ng bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan bir qancha guruhlariga ajralib chiqdilar. Asosiy guruhlar Usmon hukmronligining so‘nggi yillarida shakllana boshlagan, biroq ular birinchi fuqarolar urushi davrida aniqroq

<sup>7</sup> Farhad daftary and Azim Nanji. What is shiai slam. // The Institute of Ismaili Studies. London, 2022. – P. 2.

<sup>8</sup> Farhad daftary and Azim Nanji. What is shiai slam. // The Institute of Ismaili Studies. London, 2022. – P. 5.

qarama-qarshi tomonga aylangan. Bundan buyon bu guruhlar ularning shaxsiy sodiqliklari va mintaqaviy bog‘liqliklarini ochib beradigan konfessiyalarga ega bo‘ldilar. Ali tarafdorlari ahli Iroq (Iroq xalqi) va shia Ali (Ali partiyasi), ularning dushmanlari esa Usmon shia yoki ko‘proq Usmoniylar deb atala boshlandi. Keyinchalik Alining tarafdorlari bo‘lgan shialar o‘zlarini yanada aniqroq diniy ma’noga ega bo‘lgan atamalar bilan ataydilar. Masalan Shia ahli bayt yoki unga tenglashtirilgan shia al-Muhammad (Payg‘ambar alayhissalomning partiyasi). Alining muxoliflari endi din Ali yoki “Ali dini” haqida gapirishdi. Bu fikrga Ali norozi bo‘lganligi aniq<sup>9</sup>.

Ali roziyallohu anhu 661- yilda Kufada xavorijlar tomonidan o‘ldirilgandan so‘ng uning to‘ng‘ich o‘g‘li Hasan xalifalik vorisi deb e‘lon qilindi, lekin ko‘p vaqt o‘tmay u Muoviya foydasiga xalifalikdan voz kechdi natijada islomda birinchi sulola Umaviylar sulolasiga asos solindi, ular qariyb bir asr davomida hokimyatni qo‘llarida ushlab turishdi. Hasan ibn Ali Muoviya bilan tinchlik shartnomasini tuzdi, bu shartnoma uning hayoti va mol-mulki havfsizligini ta‘minlagandan so‘ng u Madinaga ketdi va butunlay siyosiy faoliyatdan cheklandi. Biroq shialar uni o‘zlari uchun imom deb bilishgan.

Shia guruh vakillari payg‘ambar avlodlaridan o‘zlari uchun o‘n ikki kishini imom qilib saylashgan va ular quyidagilar:

- 1.Ali ibn Abu Tolib Murtazo (Xudoning roziligi bilan tanlangan)
- 2.Imom Hasan ibn Ali Mujabo
- 3.Imom Husayn ibn Ali
- 4.Imom Ali ibn Husayn Zayn al-Obidin
- 5.Imom Muhammad ibn Ali al-Boqir
- 6.Imom Jafar ibn Muhammad as-Sodiq
- 7.Imom Muso ibn Jafar al-Kozim
- 8.Imom Ali ibn Muso al-Rido
- 9.Imom Muhammad ibn Ali al-Javod, al-Taqi
- 10.Imom Ali ibn Muhammad al-Hadiy, al-Naqiy
- 11.Imom Hasan ibn Ali al-Askariy
- 12.Imom Muhammad ibn Hasan al-mahdiy<sup>10</sup>

Imomiya nomi bilam mashhur bo‘lgan shialarning katta guruhi Islom dini targ‘ib qilish va rivojlantirishga e‘tibor qaratib siyosiy hayotda sekin harakat qilishdi.

Milodiy VIII asrda Imom Ja‘far as-Sodiq vafot etgandan so‘ng, uning to‘ng‘ich o‘g‘li Imom Ismoilga sodiq bo‘lgan izdoshlari va uning avlodlari umidlarini saqlab qolish uchun kurashdilar va bu guruh vakillari imomiylardan ajralib chiqqan ilk ismoiliy guruhlar

<sup>9</sup> Farhad Daftary. A history of shi‘i Islam. // The Institute of Ismaili Studies. London, 2013. – P. 45.

<sup>10</sup> Farhad Daftary. The ismaili Imams. // monograph. The Institute of Ismaili studies. London, 2020. – P. 86.

hisoblangan. Ular Ismoilning otasi tirikligida vafot etganini inkor etib, uni Sodiqdan keyingi haqiqiy imom deb hisobladilar, shuningdek, u tirik qoladi va oxir-oqibat Mahdiy bo‘lib qaytadi, degan fikrda edilar. Bu Shilar o‘z da‘volarini himoya qilib, imom sifatida faqat haqiqatni gapira oladigan al-Sodiq Ismoilning imomlikka bo‘lgan vorislik huquqini bekor qilish uchun hech narsa qilmaganini, shuning uchun ularning Ismoilga bo‘lgan bay‘atidan voz kechish uchun hech qanday asos yo‘qligini ta’kidlaydilar. Ular Imom Sodiq Ismoilning o‘limini faqat o‘g‘lining xavfsizligidan qo‘rqib yashirib qo‘ygan o‘g‘lini himoya qilish uchun hiyla-nayrang deb e‘lon qilganiga ishonishgan, shuning uchun ham Imom Ismoilni ular Mahdiy deb hisoblaydilar. Ismoilni Mahdiy deb hisoblovchilar shia Ismoliylarining yangi guruhiga asos soldi endi ular o‘zlarini “Sof Ismoiliylar” deb atashardi.

Sof ismoiliylarning imomiy zanjiri Ismoildan keyin to‘xtatiladi. Ismoiliy shialarining ikkinchi guruhi ham bo‘lib ular Ismoilning vafot etganligiga ishonishgan shuning uchun keying imom qilib uning o‘g‘li Muhammad ibn Ismoilni saylashadi. Shialarning bu Ismoiliy guruhlari “Muborakiyya” deb nomlangan. Abbosiylar ta’qiblari tufayli ismoiliylar va ularning izdoshlari qariyb 150 yil yashirin hayot kechirishga majbur bo‘lishgan. Dastalab ular Suriyaning Salamiyya shahrida yashab o‘z ta’limotlari yoyishgan va imom hukmronligi ostida boshqariladigan davlat tuzish uchun harakat qilganlar. Bu harakatlarning kuchayishi X asrning boshlariga to‘g‘ri kelib, Ismoiliy Imom Abdullohning Suriyadan Shimoliy Afrikaga ko‘chib o‘tishi bilan bog‘liq. Imom Abdulloh 909-yil Payg‘ambar naslidan bo‘lgan Ismoiliy imomlari boshchiligidagi Fotimiylar davlatiga asos soldi. Bu nom Payg‘ambar allayhissalomning qizi va Alining rafiqasi Fotima sharafiga qo‘yilgan edi. Keyinchalik Abdulloh Imom al-Mahdiy nomini olib, Amir al-mo‘minin nomi ostida mamlakatni boshqargan.

Fotimiy xalifa imomlar (909-1171)

1. Al-Mahdiy (909-934)
2. Al-Qo‘im (934-946)
3. Al-Mansur (946-953)
4. Al-Mu‘izz (953-975)
5. Al-Aziz (975-996)
6. Al-Hakim (996-1021)
7. Al-Zahir (1021-1036)
8. Al-Mustansir (1036-1094)
9. Al-Mustali (1094-1101)
10. Al-Amir (1101-1130)
11. Al-Hafiz regent sifatida (1130-1132) xalifa (1132-1149)
12. Al-Zafir (1149-1154)

13. Al-Fa'iz (1154-1160)

14. Al-Adid (1160-1171)<sup>11</sup>

Fotimiy xalifalarining keying qiladigan asosiy ishi mamlakat yerlarini kengaytirishdan iborat bo'ldi. Bu jarayon ayniqsa to'rtinchi imomiy xalifa Mu'izz davrida yuz berdi. U Misrni bosib olib 969-yil Qohira shahriga asos soldi. Hukmronligining so'nggi yillarida 973-yil poytaxtni Qohiraga ko'chiradi<sup>12</sup>. Shu davrdan boshlab Qohira o'zining eng yuqori rivojlanish cho'qqisiga chiqadi. Fotimiy xalifalar ilm-fanni qo'llab-quvvatlovchi hukmdor bo'lgan. Ular diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar barcha olimlarni Qohirada jamlashga harakat qilgan. Imomiy xalifa Mu'izz tomonidan barpo etilgan va keying xalifalar tomonidan ta'minlab turilgan Al-Azhar masjidi buyuk ilm dargohi sifatida xizmat qildi. Keyingi Imomiy xalifa Hakim tomonidan tashkil etilgan "Dar ul-ilm" butun sharqdagi eng yirik ilm dargohiga aylandi. Fotimiylar davlati ilmiy jihatdan yuqori natijalarga erishdi. Ammo X asrning oxiriga kelib Ismoiliylar o'rtasida bo'linish yuz berdi. Buning asosiy sababi imomiy xalifa Mustansirning vorisligi masalasi edi. Xalifa 1094-yil vafot etgandan so'ng bir guruh odamlar uning Kenja o'g'li Mustaliyni imom xalifa deb tan olsa, qolgan fotimiylar uning katta o'g'li Nizorni tanlashadi<sup>13</sup>. Bir qancha bahslardan so'ng Mustaliy Fotimiylarning keying imom xalifasi deb e'lon qilindi. Nizorning tarafdorlari esa o'z faoliyatini davom ettirish uchun Eronga ketishga majbur bo'lishadi. Shuning uchun ham hozirda Ismoiliylarning Nizoriy va Mustaliy guruhlar mavjud bo'lib, ular imom xalifa Mustansirning o'g'illari sharafiga nomlangan.

Ismoiliylarning diniy ta'limotiga ko'ra Imomlarga bo'ysunish, Alloh va Payg'ambarga itoat etishdan keyingi pog'onaga qo'yiladi. Ismoiliylar buning uchun asosiy dalil qilib, Qur'onda barcha musulmonlar Allohga, Payg'ambarga va hokimyat egalariga itoat qilishlari haqidagi amrdan olganlar. Imomlar zikr ahlidan bo'lganligi uchun, nozil etilgan xabarlarini yaxshi bilganlar, shuning uchun kimda kim to'g'ri yoldan borishga shubha qilsa imomning hukmlariga itoat etishi kerakligi uqtirilgan. Ismoiliylar Sunniy musulmonlar kabi masjidlarga borib jamoat namozlarini o'qiydilar, ammo ularda shariatlari tomonidan belgilab qo'yilgan o'ziga xos odatlari bor. Ya'ni ular jamoat namozidan so'ng duo va shafuat namozlari shuningdek she'rlar o'qish kabi amallarni bajradilar. Bundan tashqari ular, tarixning cho'qqisi va ilohiy adolatning amalga oshishini ifadalovchi Qiyomat kuni g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi.

<sup>11</sup> Farhad Daftary. The ismaili Imams. // monograph // The Institute of Ismaili studies. 2020. – P. 164.

<sup>12</sup> Farhad Daftary. The ismaili Imams. // monograph // The Institute of Ismaili studies. 2020. – P. 171.

<sup>13</sup> Farhad Daftary. A history of shi'i Islam. // The Institute of Ismaili Studies. London, 2013. – P. 132.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Farhad daftary and Azim Nanji. what is shia islam. – London: The Institute of Ismaili Studies. 2022. – 36 p.
2. Farhad Daftary. A history of shi'i Islam. // The Institute of Ismaili Studies. London, 2013. – 336 p.
3. Tamara Sonn, Adam Farrar. Kharijites. // Oxford University press. 2006. – 342 p.
4. Mohammad Ali Amir-moezzi and Chritian Jambet. What is Shii islam? An Introduction. – France: University of Sorbonne. 2009. – 218 p.
5. Najam Haider. Shi'i islam:An Introduction. // Cambridge university press. 2014. – 254 p.
6. Farhad Daftary. The ismaili Imams. // monograph. the Institute of Ismaili studies. 2020. – 297 b.
7. Sayyed Hossein Nasr. Shi'ite islam. // state university of New York press. 1975.– 218 p.
8. Ayatollah Ja'far Sobhani. Doctrines of Shia islam. // the Institute of Ismaili studies. London, 2001.– 263 p.
9. Najam Haider. The article. Zaydism: A theological and Political survey. – USA: Columbia university. 2010.– 7 p.
10. Fadi Fahes. A Thesis. Californiya State University. Social utopia in tenth century islam the Qarmatian experiment. //Califormia state university. 2018.– 68 p.
11. Farhad Daftary. The Ismilis. // The institute of ismaili studies. London, 2010. –798 p.
12. John Mchugo. A concise history of sunnis and shi'is. // UK in 2017. – 322 p.
13. Azim Nanji. What is shi'a islam. // 2004.– 254 p.
14. Hamid Mavani. Religious authority and political thought in twelver shi'ism: from Ali to post-Khomeini. // New York, 2013.– 288 p.
15. Etan Kohlberg. The article.From Imammiya to ithna ashariyya. – UK: Cambridge university press. 2012.– 15 p.
16. John Esposito and Emad El-Din Shahin. Key Islamic political thinkers. // Oxford university press. 2018.– 267 p.